

## **XALQARO VALYUTA MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHIDA VALYUTA RISKLARIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA ULARNI TAHLIL QILISH**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*“Xalqaro moliya” kafedrasi o’qituvchisi*

***Mannonov Nabiddin Najmuddin o’g’li***

*Mail: [nabiddinmannonov1999@gmail.com](mailto:nabiddinmannonov1999@gmail.com)*

*Tel: +998900869961*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada valyuta pozitsiyasi, uzun va qisqa valyuta pozitsiyalari hamda jahon valyuta bozorining sub’ektlari, muayyan davlatning rezident yoki nerezident shaxslari o’rtasida valyutalarni sotish, sotib olish, majburiyatlarni bajarish hamda boshqa shu kabi jarayonlarda vujudga keladigan munosabatlar borasidagi muammolar aniqlangan va kerakli ilmiy xulosalar berilgan.

**Kalit so’zlar.** Valyuta pozitsiyasi, kliring, xalqaro kredit, valyuta bozori, valyuta xavf, ochiq valyuta pozitsiyasi, yopiq valyuta pozitsiyasi.

**Annotation.** In this article, problems related to currency positions, long and short currency positions, and relations between entities of the world currency market, residents or non-residents of a certain country, which arise in the sale, purchase, fulfillment of obligations and other similar processes, and the necessary scientific conclusions are identified.

**Key words.** Currency position, clearing, international credit, foreign exchange market, currency risk, open currency position, closed currency position.

### **Kirish.**

Xalqaro valyuta munosabatlari - bozor iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismi va eng murakkab jarayonlaridan biri hisoblanadi. Ko’plab omillar ta’sirida xalqaro valyuta munosabatlarining murakkablashish jarayoni jadallahdi va

shuningdek, ushbu zamonaviy dunyo sharoitida o'zining barqarorsizligi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda davlat, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini pul bozori yoki valyuta bozori, undagi valyuta operatsiyalarining rivojlanishisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli ham xorijiy valyutalar bilan bog'liq bo'lgan jahon tajribasini o'rganish O'zbekiston va dunyoning boshqa davlatlarida shakllanib borayotgan bozor iqtisodiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Har qanday davlat iqtisodiyotining istiqboli uchun pul muhim ahamiyatlidir. Pul munosabatlari jamiyatdagi ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol singari jarayonlarini qamraboladi. Iqtisodiy nazariyaga ko'ra, haqiqiy pul tovar ekvivalenti sifatida mavjud bo'lib, iste'molchilarni muomalaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi.

Valyuta ham pul, ammo hamma vaqt ham pul valyuta bo'lavermaydi. Agarda muayyan bir davlatning milliy pul birligi jahon bozorida davlatlar o'rtaida pul sifatida ishlatilsa, ya'ni pulning funksiyalarini bajarsa, u valyutaga aylanadi. Valyuta jahon bozorida, davlatlar o'rtaSIDAPUL vazifalarini bajaruvchi davlatlarning milliy pul birliklaridir. Masalan, Amerika Qo'shmaShtatlari "dollari", Buyuk Britaniya "funt sterlingi", Kanada "dollari", Fransiya "franki", Yapon"ienasi" va boshqa shu kabilar. Muayyan bir davlatning milliy puli - uning milliy valyutasi bo'ladi. Shu davlat uchun boshqa davlatlarning milliy pul birliklari esa - xorijiy valyutalardir.<sup>1</sup>

Valyuta munosabatlari bu, valyutani jahon xo'jaligi muomalasida amal qilishjarayonidava xalqaro aloqalar sohasiga xizmat ko'rsatishda o'ziga hos pul munosabatlariningyig'indisidir,<sup>2</sup> yoki davlatlar, jahon valyuta bozorining sub'ektlari, muayyan davlatning rezident yoki norezident shaxslari o'rtaSIDA valyutalarni sotish, sotib olish, majburiyatlarni bajarish hamda boshqa shu kabi jarayonlarda vujudga keladigan munosabatlardir. Valyuta munosabatlarining

---

<sup>1</sup> Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari/ darslik. T. Babakulov, U.Abdullayev.- Toshkent: "Sano - standart", 2022, 232 b

<sup>2</sup> Финансово-кредитный энциклопедический словарь / Колл. авторов; Под общ. ред. А.Г. Грязновой М.:Финансы и статистика, 2022. – 1168 с

asosiy ishtirokchilari ya’ni subyektlari sifatida xalqaro moliyaviy tashkilotlar, davlatlar, davlatlarning rezident va norezident shaxslari e’tirof etiladi. Rezident shaxs deganda muayyan davlat hududida yashayotgan va ushbu davlat fuqarosi bo’lgan hamda mazkur davlat hududida faoliyat ko’rsatayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs tushunilishi mumkin. Norezident shaxs esa bu muayyan davlat hududida yashab faoliyat ko’rsatayotgan, ammo shu davlat fuqarosi bo’lmagan yuridik yoki jismoniy shaxsdir. Norezident shaxsga misol qilib elchixonalar, vakolatxonalar, chet el firma va korxonalarining bo’linmalari hamda shu kabilarni keltirsak bo’ladi. Hozirgi kunda umumjahon xo’jalik hayotining baynalmilallashuv jarayonida, xalqaro doirada mamlakatlararo kapital importi va eksporti muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda va bu munosabatlar mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga barqaror ta’sir etmoqda. Ayniqsa, jahoning ko‘plab rivojlanish bosqichiga qadam qo’yan mamlakatlar chet el investitsiyalari va kreditiga muhtojdirlar. Hozirda kapital eksporti bilan shug’ullanuvchi mamlakatlarning aksariyatini sanoati rivojlangan davlatlar tashkil qilmoqda. Masalan, AQSH, G‘arbiy Yevropadavlatlari va Yaponiya kapital eksporti bilan shug’ullanuvchi davlatlar hisoblanadi. Shuningdek, shunga o’xshash davlatlardan kredit olib, ularning investitsiyalari hisobiga o‘z milliyi qtisodiyotini tiklab olgan va tayyor mahsulotlar eksportini muvaffaqiyat bilan amalga oshirayotgan davlatlarning ko’lami ortib bormoqda. Bunday davlatlar sirasiga Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan hamda Gonkong kabi davlatlar misol bo’lishi mumkin.

### **Tahlil va natijalar.**

Xalqaro kredit aslida feodalizm davrida paydo bo‘lgan. Bu davrlarda harbiy yurishlarni hamda monarxlar va zodagonlarning saroylariga tegishli xarajatlarini qoplash uchun boshqa mamlakatlardan qarzga mablag‘lar olingan. Dastlab ssuda mablag‘ini chetga chiqarish aksariyat xususiy shaklda amalga oshirildi. Keyinchalik esa bunday faoliyat “xalqaro kredit” munosabatlariga tobora ko‘proq aralasha boshlagan hukumatlar ya’ni davlatlar tomonidan rag‘batlantirila boshlandi.

Xalqaro kreditga oid huquqiy munosabatlar shunday shartnomaviy munosabatki, unda bir taraf chet el elementi, ya’ni chet el mamlakatining banklari, firmalari, kompaniyalari, yuridik va jismoniy shaxslari, Transmilliy Korporatsiyalari va chet davlatning o‘zi boshqa davlatga, uning yuridik va jismoniy shaxslariga foizlar hisobida, shartnomalarda belgilangan muddatlarda qaytarish sharti bilan beradigan kreditga oid munosabatlardir.<sup>3</sup>

Xalqaro kredit asosan iqtisodiy qonunlar talabidan kelib chiqib, bozor iqtisodiyoti subyektlarining daromad olishlari uchun zarur bo‘lgan shartsharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Tarixan xalqaro kredit aloqalari xalqaro savdoga qo‘llanilgan, mantiqan esa sarmoya harakatiga xususiy sarmoyaning rivojlanayotgan mamlakatlar olamiga so‘nggi yillarda to‘liq asosan iqtisodiyot taraqqiyotida yutuqlarga erishgan mamlakatlarga yetib keldi. Tashqi investitsiya qarzlarining bir toifasi xalqaro moliya muassasalari u yoki bu mamlakatdagi investitsiya loyihalarini kreditlashi mumkin. O‘zbekistondagi loyihalarni moliyalashni amalga oshirishda ko‘maklashuvchi eng nufuzli xalqaro banklar bo‘lib, ular qatoriga Jahon tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo rivojlanish banklarini kiritish mumkin. Shuni ham aytib o’tish joizki, chetdan olingan qarz muayyan tavakkalchilik bilan bog‘liq bo’ladi, shuning uchun davlat yoki xususiy tarmoq doirasida chet el investitsiyalaridan oqilona foydalanimaslik mamlakatga juda qimmatga tushishi mumkin.

Xususan, valyuta risklarining vujudga kelishida bir qancha omillar ta’sir ko’rsatadi va bular quyidagicha izohlanadi:

Valyuta kurslarining muvozanatsizligi xalqaro mehnat taqsimotiga, xalqaro savdo balansiga va hajmiga salbiy ta’sir etadi, shuningdek, tovarlar va xizmatlar ekvivalent almashuvini qiyinlashtiradi.

Valyuta kurslarining muvozanatsizligi import va eksport qiluvchilarni o’zlarining xorijdan sotib olish va xorijga sotish operatsiyalarini qisqartirishga majbur qiladi. Chunki import va eksport qiluvchilar Valyutalarning qisqa

---

<sup>3</sup> Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 343 b.

## ***Modern education and development***

---

muddatli davriy oraliqdagi o'zgarishini oldindan bila olmaydilar. Shuning uchun import qiluvchi ma'lum bir tovari o'zini Valyuta xavf-xatariga qo'yib, chet davlatdan sotib olganidan ko'ra, o'z mamlakatida ishlab chiqarilayotgan o'rribosar tovari sotib olgani afzalroqdir.

To'lovi kelgusida amalga oshishi ko'zda tutilgan, shartnoma tuzilish paytida ma'lum bir summada qayd etilgan har qanday kredit operatsiyasi, shartnoma Valyutasi ishtirokchi uchun xorijiy bo'lган tarafning Valyuta xavf-xatariga chalinadi. Kreditor, o'zining xorijlik kontragentlariga kreditni bergen holda, qiymatni ekvivalent miqdorda ololmaslik xavf-xatariga uchraydi. Qarz oluvchi ham, agarda to'lov paytida qarz Valyutasining kursi shartnoma tuzilgan sanaga nisbatan ko'tarilsa, zarar ko'rishi mumkin.

Eksport va import qiluvchilar, Valyuta riski bilan, tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirganda to'qnashadilar. Eksport qiluvchi, agarda u tovarlarni to'lovi kechiktirilgan holda sotgan bo'lsa va baho Valyutasi sifatida import qiluvchi Valyutasi yoki uchinchi davlat Valyutasi olingan bo'lsa, Valyuta riskiga duchor bo'ladi. Agarda, baho Valyutasining kursi eksport qiluvchi milliy Valyutasiga nisbatan pasaysa, unda eksport qiluvchi zarar ko'rishi mumkin.

Eksport qiluvchi (kreditor), agarda shartnomaning tuzilishi va u bo'yicha to'lov-ning amalga oshirilishi davri ichida baho Valyutasining kursi uning milliy Valyutasiga nisbatan pasaysa, zarar ko'radi. Import qiluvchi (debitor) uchun esa zararlar, kursning yuqoridagiga nisbatan qarama-qarshi harakati natijasida paydo bo'ladi.

Valyuta riski xalqaro savdo va kredit munosabatlari qiyinlashtirib yuboradi, oqibatda mazkur munosabatlar ishtirokchilari Valyuta xavf-xatarlarini o'rghanish orqali ularni bartaraf etish yo'llarini qidira boshlaydilar.

Tashqi iqtisodiy shartnoma ishtirokchilari uchun Valyuta riski paydo bo'lishining quyidagi shartlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- ochiq Valyuta pozitsiyasining mavjudligi;
- shartnoma Valyutasi sifatida xorijiy Valyutadan foydalanish;

— shartnomaning tuzilishi va u bo'yicha hisob-kitob orasida vaqt uzilish davrining mavjudligi.

Valyuta pozitsiyasi — dilerning talab va majburiyatlar nisbati. U ikki qismidan iborat, ya'ni «uzun» va «qisqa» pozitsiyadan.

«Uzun» pozitsiyada dilerning talablari aks etadi. Talablar esa, diler tomonidan Valyuta sotib olinganda hosil bo'ladi.

«Qisqa» pozitsiyada dilerning majburiyatlar aks etadi. Majburiyatlar esa, diler tomonidan Valyuta sotilganda hosil bo'ladi.

Agarda dilerning talablari majburiyatlaridan ko'p bo'lsa, unda Valyuta pozitsiyasi «uzun» pozitsiya bo'yicha ochiq hisoblanadi. Agarda dilerning majburiyatlar talablaridan ko'p bo'lsa, unda Valyuta pozitsiyasi «qisqa» pozitsiya bo'yicha ochiq hisoblanadi. Dilerning talab va majburiyatlar o'zaro teng bo'lsa, unda Valyuta pozitsiyasi yopiq hisoblanadi.

Valyuta kurslari muvozanatsizligi qanchalik yuqori bo'lsa, Valyuta riski shunchalik yuqori bo'ladi. Hozirgacha, biz Valyuta riski tushunchasini faqat bir operatsiyaga nisbatan ko'rib chiqqan edik. Agarda tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilari bo'lmish taraflar xorijiy Valyutada ifodalangan majburiyatlar va talablarga ega bo'lib, ko'p turdag'i operatsiyalarni amalga oshirsa, unda ular barcha operatsiyalar bo'yicha emas, balki faqat ochiq Valyuta pozitsiyasi bo'yicha Valyuta xatariga uchraydilar.

Ochiq Valyuta pozitsiyasi Valyuta riski bilan bog'liq bo'lib, banklarni (firmalarni) qo'shimcha daromad olish yoki ortiqcha xarajat (hatto bankrotlikka) qilishga olib keladi. Shu sababli, ko'pgina mamlakatlarda davlat moliya organlari ochiq Valyuta pozitsiyalari miqdorlarini chegaralaydilar.

Odatda, Valyuta riski muammosini hal etish bilan bog'liq firmanın faoliyati ochiq Valyuta pozitsiyasi miqdori, ya'ni Valyuta xatariga tortiladigan xorijiy Valyutadagi summalarini aniqlashdan boshlanadi. Bu yerda shuni hisobga olish kerakki, xorijiy Valyuta sotib olinganda Valyuta pozitsiyasining uzun pozitsiyasi ko'payadi yoki shu Valyutadagi qisqa Valyuta pozitsiyasi kamayadi (talablar oshadi yoki majburiyatlarning bir qismi bajariladi), xorijiy Valyuta

## ***Modern education and development***

sotilganda esa buning teskarisi bo'ladi, ya'ni qisqa Valyuta pozitsiyasi ko'payadi yoki uzun pozitsiya kamayadi.


Ochiq Valyuta pozitsiyasi yuqori darajadagi Valyuta riski manbaidir. Valyuta yo'qotishlarni manbai bo'lgan, ochiq Valyuta pozitsiyalarini aniqlanishi bilan, Valyuta xavf-xatarlarini bartaraf etish zarurati tug'iladi.

Shunday qilib, yuqorida ko'rib chiqilgan Valyuta riskining paydo bo'lish sharoitlariga (shartnomalarda xorijiy Valyutaning ishlatalishi, shartnomalarda tuzilishi va ijro etilishi orasida vaqt uzilishining mavjudligi) yana bir sharoitni, ya'ni ochiq Valyuta pozitsiyasi mavjudligini qo'shsa bo'ladi.

Xalqaro moliya bozoridan kapital jalb qilishning hozirgi holati global kapital oqimining o'zgaruvchan dinamikasini va jahon moliyasining o'zgaruvchan manzarasini aks ettiradi. Ushbu vaziyatni tahlil qilish chegaralar bo'ylab kapital oqimiga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlar, tendentsiyalar va omillarni baholashni o'z ichiga oladi. Tahlil qilishda quyidagi jihatlarni ko'rib chiqish mumkin:

### **6 -rasm. FOREX ishtirokchilarining yosh kesimida taqsimoti (Daily Forex 2022)**

Rasmdan ko'rish mimkinki, FOREX ishtirkchilarining 45% ni 25-43 yoshliklar tashkil qiladi.



### **Mashhur valyutalar ro'yxati va ularning tegishli kodlari<sup>4</sup>**

<sup>4</sup> Muallif ishlanmasi

Valyuta	Kod
AQSH DOLLARI	USD
YEVRO	EURO
YAPON YENASI	JPY
BRITANIYA FUNTI	GBP
CANADA SOLLARI	SAPR
AVSTRALIYA DOLLARI	AUD
SHVETSARIYA FRANKI	CHF

Valyuta bozori bozor soatlarida kuniga 24 soat ochiq. Deyarli barcha provayderlar, shu jumladan FOREX.com, hafta davomida tanaffuslarsiz narxlarni taklif qiladi.

#### **7- rasm. FOREX bozorining mamlakatlat kesimida ish vaqtleri<sup>5</sup>**



Jadvaldan ko`rish mumkinki yil Valyuta bozori bozor soatlarida kuniga 24 soat ochiq. Quyidagi grafik shuni ko'rsatadiki, ko'plab moliyaviy aktivlarda bo'lgani kabi, valyuta savdosining katta qismi dilerlar va boshqa vositachilar o'rtaSIDadir.

Kulrang maydon so'rovga javob bergen mingdan ortiq muassasalar qatoriga kiruvchi ikki diler o'rtaSIDagi qismni bildiradi. So'nggi yillarda diler ichidagi ulush umumiylaj hajmnning taxminan 40% ni tashkil etdi.


<sup>5</sup> Muallif ishlanmasi

## ***Modern education and development***

Ko`k maydon so`rov ishtirokchilari va boshqa moliya institutlari o`rtasidagi savdoning ulushidir. Bu hozirda hajmnning yarmidan ko`pini tashkil qiladi.

Nihoyat, biz moliyaviy bo'limgan mijozlarga, qizil maydonga keldik. Bu yerda raqamlar oddiyroq - jami 10% dan kam. Dollar bilan aytganda, bu yakuniy foydalanuvchilar kuniga 500 milliard dollardan kam valyuta savdolarida qatnashadilar.

Darhaqiqat, bir qator o'lchamlarda dollar hukmronligi saqlanib qolmoqda. Misol uchun, BIS joylashuvi bo'yicha bank statistikasini ko'rib chiqsak va evrodagi transchegaraviy pozitsiyalarning to'rtdan uch qismi evro hududida joylashgan deb faraz qilsak (shuning uchun biz ularni yo'q qilishimiz kerak), biz AQSh dollarining barqaror ikki baravarga to'g'ri kelishini ko'ramiz. barcha transchegaraviy bank majburiyatlarining uchdan bir qismi.



### **Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda, O`zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro moliya munosabatlarini yo'lga qo'yish va rivojlantirish borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. O`zbekiston o`zining tinchliksevar, yaxshi

qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rni ni egalladi hamda uning mavqeい yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiyalashuvi milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi, shuningdek, fan-texnika taraqqiyotinijadallashtirishga, millatlar va elatlarning yaqinlashuviga, aholi turmush darajasini oshirishga yordam beradi. Mamlakatlarning muayyan integratsion tashkilot doirasida birlashuvi, ular o'rtasida mahsulotlar, xizmatlar va kapital harakati bilan bog'liq munosabatlarni rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, mamlakatlар o'rtasida yangi texnologiyalarning erkin tarqalishiga, ularning milliy iqtisodiyotlarda ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish jarayoniga joriy etilishiga qulay zamin yaratadi va pirovardida iqtisodiyot barqarorligiga erishishga ko'maklashadi.

Jahon xo'jaligining rivojlanib, global mashhur jarayonining chuqurlashib borishi bilan Xalqaro iqtisodiy hamkorlikning milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi ahamiyati ortib boradi. Ekspertlarning fikricha, jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladigan xalqaro tashkilotlar soni 100 ta atrofidadir. Birinchidan kelib chiqib, ikki tomonlama, hududiy va global tuzilmalar ajratib ko'rsatiladi. Ikkinci mezonni qo'llagan holda maxsuslashtirilgan va global tashkilotlarga yuzaga keladi. Xalqaro tashkilotlar 19-asrda vujudga keldi va 2 jahon urushidan keyin ko'plab tuzila boshladi. Hozirgi kunda Xalqaro tashkilotlarning soni 4 mingdan ortiq bo'lib, 300 tasi hukumatlararo tashkilotdir. Ushbu bobda O'zbekistonning xalqaro moliya tashkilotlari va xorij mamlakatlari bilan amalga oshiryotgan ishlari tahlili keng yoritilgan.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ataniyazov J.X. Alimardonov E.D. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti. T.: 2021 y.
2. Xamdamov Sh. (2022) O'zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanish va inklyuziv o'sishning xalqaro ko'rsatkichlari tahlili/19-Xalqaro iqtisod, moliya

va biznes konferentsiya materiallari to'liq maqolalar. 282-288-bet. Praga, Chexiya;

3. Vaxabov A., Jumayev N., Xoshimov E. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish yo'llari. – T.: Akademnashr, 2019. – 141 b.
4. Ana Paula Cusolito. «Export Competitiveness and the Intensive and the Extensive Margins of Trade». World Bank, Washington, DC. 2020.
5. <https://president.uz>
6. <http://www.worldbank.org>
7. <http://www.adb.org>
8. <https://www.ebrd.com>
9. <http://www.imf.org>
10. [www.norma.uz](http://www.norma.uz) (O'zbekiston Respublikasi axborot xuquqiy portal)
11. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi)
12. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) (Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali)
13. [www.imf.org](http://www.imf.org) (Xalqaro valyuta jamg'armasi rasmiy sayti)
14. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org) (Jahon banki guruhining rasmiy sayti)
15. [www.bis.org](http://www.bis.org) (Xalqaro hisob kitob bankining rasmiy sayti)